



FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING F A R M O Y I S H I

2022 йил «28» январь

8-11-157-F/22

Қўштепа туман ҳокимлиги

Mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28, 126-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-5-fevral kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan majlis bayonining 81-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori hamda Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022-yil 26-yanvardagi VI-40-2-11-0-K/22-sonli sessiya qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

1. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022-yil 26-yanvardagi VI-40-2-11-0-K/22-sonli sessiya qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyat mahalliy budjetining 2022-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan maktabgacha ta’lim muassasalarining bo‘sh turgan maydonlariga yengil tipdagi bog‘chalar (kontenerli) tashkil etish ishlarini to‘liq yakunlash uchun qolgan ellik foizi, ya’ni 580,0 (besh yuz sakson) million so‘m mablag‘ Qo‘shtepa tuman mahalliy budjetiga o‘tkazib berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimligining Moliya bo‘limi (I.Akbarov) Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining mazkur qarori bilan ajratilgan 580,0 (besh yuz sakson) million so‘m mablag‘ni belgilangan tartibda tuman maktabgacha ta’lim bo‘limiga ajratilishini ta’minlasin.

4. Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi (I.Maxmudova)ga:

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan xujjatlarni moliya hamda g‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (I.Akbarov)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish va budget xarajatlari rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (G‘.Raximov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Yunusov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



I.V.Novikov